

---

Qo'shtepa tumanida bolajonlar uchun yangi yil bayrami tadbiri tashkil etildi "Yangi yil bayrami" munosabati bilan Qo'shtepa tumanida ehtiyojmand oilalarning farzandlari uchun teatrlashtirilgan bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda sektor rahbarlari hamda mas'ul idoralarning rahbarlari ishtirok etishdi.

Yuz-ko'zlarida quvonch va shodlik, o'zlariga ko'rsatilayotgan cheksiz e'tibor hamda g'amxo'rlikdan mamnunlik ifodasi balqigan bolajonlar ishtirokida o'tgan tadbirda tuman hokimi A.Abdullayev barchani bayram bilan qizg'in qutladi.

Shundan so'ng sektor rahbarlari ishtirokida 500 nafardan ziyod bolajonlarga bayram sovg'alari taqdim etildi.

Tadbir davomida tuman Madaniyat bo'limi xodimlari tomonidan bolajonlar uchun qiziqarli tomosha va sahna ko'rinishlari namoish etildi. Ayniqsa ularga 100 nafar Qorbobo va Qorqiz ishtirok etgan "Qorbobolar karvoni" loyihasi juda manzur bo'ldi. Tumanimizning markaziy archasi atrofida bolajonlarning sho'x-shodon kuy-qo'shiqlari bayram tadbiriga o'zgacha fayz kiritdi. Bolalar turli ertak qahramonlari bilan birga qo'shiqlar kuylab, raqsga tushdilar.

2024-12-28 15:58:38